



SCIENTIFIC-THEORETICAL ASPECTS OF SUBURBAN AGRICULTURE IN ECONOMIC GEOGRAPHICAL RESEARCH

Imongali N. Islamov

senior lecturer

Tashkent State Pedagogical University named after Nizami

Tashkent, Uzbekistan

E-mail: Imon_gali-76@mail.ru

ABOUT ARTICLE

Key words: Social division of labor, regional systems, suburbs, urbanization, agglomeration, population settlements, suburban zone, land cadastre, infrastructure, specialization.

Received: 15.11.23

Accepted: 17.11.23

Published: 19.11.23

Abstract: Suburbs are a product of the division of labor, and they form and develop around large cities. This article is devoted to the agro-economic-geographic researches of the suburban economy, and the scientific-theoretical basis of the economic-geographical aspects of the small areas that are included in the urban agglomeration and reflect the characteristics of large cities and villages. The characteristics of the formation and development of suburban areas in various socio-economic relations characteristic of the historical stages of society have been deeply studied by classical and contemporary researchers. This article examines the importance of natural, demographic, economic-social, conditions and factors affecting the formation of the regional and branch structure of the suburban economy.

IQTISODIY GEOGRAFIK TADQIQOTLARDA SHAHAR ATROFI QISHLOQ XO‘JALIGINI ILMIY – NAZARIY JIHATLARI

Imongali N. Islamov

katta o‘qituvchi

Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti

Toshkent, O‘zbekiston

E-mail: Imon_gali-76@mail.ru

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Ijtimoiy mehnat taqsimoti, xududiy tizimlar, shahar atrofi, urbanizatsiya, aglomeratsiya, aholi manzilgohlari, shahar

Annotatsiya: Shahar atrofi mehnat taqsimotining mahsuli bo‘lib, yirik shahar atrofida tarkib topadi va rivojlanadi. Mazkur

atrofi zonası, yer kadastro, infrastruktura, ixtisoslashuv.

maqola shahar atrofi xo‘jaligining agroiqtisodiy-geografik tadqiqotlariga bag‘ishlangan bo‘lib, shahar aglomeratsiyasiga kiruvchi, o‘zida ham yirik shahar va qishloq xususiyatlarini aks ettirgan kichik xududlar iqtisodiy geografik jihatlarining ilmiy-nazariy asoslari yoritilgan. Jamiyat tarixiy bosqichlariga xos turli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarida shahar atrofi xududlarining shakllanishi va rivojlanish xususiyatlariga klassik va hozirgi zamon tadqiqotchilar tomonidan chuqur o‘rganilgan. Mazkur maqolada shahar atrofi xo‘jaligining xududiy va tarmoqlar tarkibining shakllanishiga ta’sir etuvchi tabiiy, demografik, iqtisodiy-ijtimoiy, shart-sharoit va omillarning ahamiyati o‘rganilgan.

НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ ПРИГОРОДНОГО ЗЕМЛЕДЕЛИЯ В ЭКОНОМИКО-ГЕОГРАФИЧЕСКИХ ИССЛЕДОВАНИЯХ

Имонгали Н. Исламов

старший преподаватель

Ташкентский государственный педагогический университет имени Низами

Ташкент, Узбекистан

E-mail: Imon_gali-76@mail.ru

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: Общественное разделение труда, региональные системы, пригороды, урбанизация, агломерация, поселения населения, пригородная зона, земельный кадастр, инфраструктура, специализация.

Аннотация: Пригороды являются продуктом разделения труда, они формируются и развиваются вокруг крупных городов. Статья посвящена агроэкономико-географическим исследованиям пригородного хозяйства, научно-теоретическому обоснованию экономико-географических аспектов малых территорий, входящих в городскую агломерацию и отражающих особенности крупных городов и сел. Особенности формирования и развития пригородных территорий в различных социально-экономических отношениях, характерных для исторических этапов развития общества, глубоко изучены классическими и современными исследователями. В данной статье рассматривается значение природных, демографических, экономико-социальных условий и факторов, влияющих на формирование региональной и отраслевой структуры пригородного хозяйства.

KIRISH

Shahar atrofi qishloq xo‘jaligining shakllanishi bevosita shaharlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq, shaharlar ijtimoiy mehnat taqsimotining natijasidir. Ijtimoiy mehnat taqsimotining xududiy jihatdan rivojlanishi va chuqurlashuvi shahar atrofi qishloq xo‘jaligini ham shakllanishiga olib keladi. Ma’lumki, shahar aglomeratsiyalari mamlakat va mintaqalarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda “o‘sish qutblarni” rolini bajarib, yirik shahar va uning atrofida, iqtisodiy, ijtimoiy, xo‘jalik, madaniy-maishiy turdagiligi aloqalarni shakllantiradi. Mashhur shaharshunos olim G.M.Lapponing ta’rif berishicha, “Shahar aglomeratsiyalari xilma-xil intensiv aloqalar bilan yagona, dinamik tizimga birlashgan aholi manzilgohlarining ixcham xududiy guruhidir”[1].

Shahar atrofi qishloq xo‘jaligi, yirik shahar xududiga yaqin joylashgan bo‘lib, shahar aholisiga uzoq saqlanmaydigan va qayta ishlanmaydigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqishga ixtisoslashgan xudud tushiniladi.

Shahar uning atrofi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqargan mahsulotlarning istemolchisi va shahar atrofiga qishloq xo‘jaligini ishlab chiqarish vositalari bilan ta’minlab beruvchi xudud sifatida nomoyon bo‘ladi. Shahar aholisining xayot faoliyati uchun zarur bo‘lgan iste’mol mahsulotlari, oziq-ovqat, xom-ashyo bilan ta’minlanish zaruriyati shahar atrofi qishloq xo‘jaligiga tarmoqlari tarkibiga va ixtisoslashuviga ta’sir ko‘rsatadi.

Yirik shahar aholisiga uchun meva-sabzovot, kartoshka, sut, go‘sht mahsulotlari, tuxum va boshqa turdagiligi transport tashuvchanligiga past va tezaynidigan mahsulotlarga qishloq xo‘jaligining ixtisoslashuvi shahar atrofi qishloq xo‘jaligining asosiy xususiyati hisoblanadi.

ASOSIY QISM

Shahar atrofi qishloq xo‘jaligining shakllanishi bevosita shaharlarning paydo bo‘lishi bilan bog‘liq, shaharlar ijtimoiy mehnat taqsimotining natijasidir. Ijtimoiy mehnat taqsimotining xududiy jihatdan rivojlanishi va chuqurlashuvi shahar atrofi qishloq xo‘jaligini ham shakllanishiga olib keladi.

“Shahar atrofi” tushunchasi, xududning geografik jihatdan yirik shaharga (shahar-yadrosiga) yaqinligida va ular o‘rtasida funksional, iqtisodiy, madaniy-maishiy va boshqa turdagiligi alaqlarni namoyon bo‘lishida aks etadi. Shahar va uning atrofi o‘rtasidagi aloqalarni yirik olim E.B.Alayev tomonidan chuqur o‘rganilgan, u shunday ta’kidlagan: «Quyi rayon qishloq aholisini oziq-ovqat, sanoatni esa xom ashyo bilan ta’minlaydi. O‘z navbatida shahar atrofi qishloq xo‘jaligini rivojlanishi va ixtisoslashuvi yo‘nalishiga faol ta’sir ko‘rsatadi» [2]. Shahar atrofi zonalari yirik shaharlar atrofida tarkib topadi va shahar aglomeratsiyalarida shakllanadi. Yirik shaharlarning chekkalarida shahar atrofi zonalari, yo‘ldosh-shaharlar, dam olish zonalari va qishloq xo‘jaligi ekin maydonlari joylashadi.

Binobarin, hozirgi paytda “shahar atrofi” tushunchasiga nisbatan har xil yondashuvlar bor. Yuridik jihatdan, shahar atrofi xududiga O‘zbekiston Respublikasining Yer Kodeksida “Shahar atrofi zonalari shahar bilan yagona ijtimoiy, tabiiy va xo‘jalik hududini tashkil etuvchi shahar chegarasidan tashqaridagi yerlarni o‘z ichiga oladi. Shahar atrofi zonalarida shahar atrofidagi qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishi hududi, aholi dam olish zonalari, shaharni rivojlanтирish uchun zaxira yerlar ajratiladi.”[3], deyilgan. Shuningdek, shahar atrofi xududini, transport rayonlashtirish uslubini qo‘llash orqali va bu uslubda shahar atrofining uchta zonasiga ajratilib o‘rganiladi.

Yirik shahar qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini iste’mol qilish va texnika va sanoat mahsulotlar bilan ta’minlovchi ahamiyatga ega bo‘lib, bir tomondan shahar atrofi xo‘jaligi rivojlanishiga, ishlab chiqarish tarkibiga, ixtisoslashuviga bevosita va bilvosita ta’sir ko‘rsatadi.

Shahar atrofi murakkab xududiy ob’ekt bo‘lib, o‘z navbatida ham shahar, ham qishloq xususiyatlarini o‘zida mujassam etadi. Shahar atrofini tavsiflanishi iqtisodiy geografik o‘rin (no rasmiy shahar chegaralari), aholisi (zichligi, aholi o‘sish dinamikasi, mehnat resurslari va ularning bandligi), yerdan foydalanish, infratuzilma va xizmat sohalarini o‘z ichiga oladi.

Ma’lumki, milliy iqtisodiyot xududiy tarkibini takomillashtirish mintaqalar iqtisodiy-ijtimoiy rivojlanishi, aholi bandligi oshishi, aholining turmush darajasi yaxshilanish va shu kabi muammolarni yechimini topadi. Hozirgi davrda, aholi punktlarini bosh rejalar bilan ta’minlash va loyihalashtirish, infratuzilma tizimlarini yaratish, sanoat, qishloq xo‘jaligi, ekologiya va boshqa maqsadlarda foydalanish nuqtai nazaridan yirik shahar atrofini ilmiy jihatdan o‘rganish alohida qiziqish uyg‘otadi. Shu nuqtai nazardan, shahar atrofi ko‘pgina fanlarning o‘rganish ob’eti bo‘lib, har bir fan esa, o‘zining tadqiq qilish predmeti yoki aspekti doirasida o‘rganadi. Mintaqaviy iqtisodiyot, iqtisodiy geografiya, shaharshunoslik, yer kadastri va boshqa fanlar shahar atrofi xududlari bo‘yicha ilmiy izlanishlar olib borishmoqda. Binobarin, shahar atrofi qishloq xo‘jaligini iqtisodiy geografik jihatdan tadqiq qilish va ilmiy – nazariy jihatlarini ochib berish bir tomondan, qishloq xo‘jaligi geografiyasi, ikkinchi tomondan shaharlar geografiyasi yo‘nalishlari doirasida olib boriladi.

Jamiyat tarixiy bosqichlariga xos turli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari shahar atrofi xududlarining shakllanishiga, rivojlanish xususiyatlariga, bajaradigan funksiyasiga, ixtisoslashuviga, band aholining faoliyat turlariga va boshqa jihatlariga o‘z aksini ko‘rsatadi.

Shahar va qishloqlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqadorlik tarixiy bosqichlar bo‘yicha turlicha bo‘lgan. Dastlab, shahar qishloqlarga o‘xshagan manzilgoh bo‘lib, unda yashaydigan aholi hunarmanchilik bilan shug‘ullangan. Shahar va uning atrofi xududi bir xil mehnat turi bilan shug‘ullanib, ular o‘rtasida keskin iqtisodiy tafovutlar kuzatilmagan.

1826 yilda nemis olimi Y.Tyunen tomonidan 1826 yilda, “Alohida davlat, uning qishloq xo‘jaligi va milliy iqtisodiyotga munosabati” “Изолированное государство в его отношении к

селскому хозяйству” deb nomlangan ilmiy asarida qishloq xo‘jaligi standartlari nazariyasi ishlab chiqiladi. Yogan Tyunenning qishloq xo‘jaligini joylashtirishning qonuniyatlarining nazariy konsesiyasini yaratadi. Bu ilmiy tadqiqotda, ishlab chiqarish sarflari, tuproq unumdonligi va o‘simgiliklar xususiyati, bozor narxlariga nisbatan transport xarajat omillarini ko‘rib chiqadi. Y.Tyunen abstrakt iqtisodiy jihatdan alohida ajralgan davlat misolida, qishloq xo‘jaligini ishlab chiqarilgan mahsulotlarini va mamlakat aholisini sanoat mahsulotlar bilan ta’minlovchi yagona iste’molchisi yirik shahar miqyosida ko‘rib chiqadi. Olim, yirik shahar atrofida qishloq xo‘jaligining har xil ixtisoslashuv zonalari bo‘lgan markaziy shahar atrofidagi turli diametrga ega bo‘lgan hududlarda konsentratsiyalashuv aylanalari tizimini va shaharlardan uzoqlashgan sari, intensiv qishloq xo‘jaligining kamayib borish nazariyasini yaratadi.

Shaharlar yirik demografik, ijtimoiy, iqtisodiy va ilmiy salohiyotga ega bo‘lib, mamlakat va mintaqada ro‘y berayotgan siyosiy va ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlarni vujudga kelishida muhim rol o‘ynaydi. Shaharlar, ularni jamiyat taraqiyotidagi o‘rni ayniqsa iqtisodiy geografiya asoschilaridan biri N. N. Baranskiy tomonidan aniq va lo‘nda ifodalangan: «Shaharlar–bu mamlakatni barcha xo‘jalik, siyosiy–ma’muriy, madaniy jihatlardan tashkil etuvchi, bamisolli tarkibli boshqaruvi natijasida shahar aglomeratsiyalari o‘sishiga olib keldi [4]»

Iqtisodchilarning ta’kidlashiga qaraganda, shahar markaziga yaqinlashgan sari yer uchastkalarining narhi va renta doramadi oshib boradi, shaharning turli zonalarida uning bajaradigan funksiyasi ham turlicha bo‘ladi [5].

Yirik shaharlarda yuzaga kelgan vaziyatni yumshatish maqsadida, shahar atrofi xududlarida ishchi posyolkalarini qurish tadbiri amalga oshiriladi. Ishchi poselkalarda sanoat ob’ektlarini yaratilishi bilan, atrof xudud qishloq xo‘jaligi funksiyasini bajarilishidan mustasno bo‘ladi. Shahar atrofi xududlarida ko‘p qavatli uy-joylar, ijtimoiy infratuzilma ob’ektlari shakllandi. Shuni qayd qilish lozimki, o‘sha davrda shahar atrofining shakllanishi, yirik shaharlarda, ishlab chiqarishning dekonsentratsiyasi va shahar atrofi xududlarining sanoatlashishi hisobiga amalga oshdi.

Shahar aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzluksiz ravishda ta’minalash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shahar va uning atrof hududining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi, shaharni o‘zining atrofida joylashgan yo‘ldosh shaharlar va shaharchalarga bo‘lgan ta’siri va katta shaharlar bilan ular atrofidagi xo‘jalik o‘rtasidagi aloqadorlik nazariy masalalarini chuqur talqin qilgan.

Shahar va shahar atrofi bilan birgalikda xududiy-xo‘jalik integratsiyasining tashkil etadi, bu mexanizm o‘zida qarama-qarshi jarayonlarni dinamizm-inertlilik, konsentratsiya-tarqoqlik, ixtisoslashuv-integratsiya, shahar-qishloq turmush tarzi, yuksaklik- qaloqlik kabi ijobiy, ham salbiy xususiyatlarni o‘zida mujassamlantiradi.

Yirik shahar va uning atrofi iqtisodiy, ijtimoiy, demografik jihatdan o'zaro bog'langan bo'lib, bir-birini to'ldiradigan yagona tizimni tashkil etadi. Shahar aglomeratsiyasining samarasi chekka xududlarda shaharga xizmat qiluvchi yoki qayta ishlovchi sanoat ob'ektlarining joylashuvida, mehnat resurslari bilan ta'minlanishida, shahar turmush tarzi ta'sirida o'z aksini topadi. Yirik shahar va uning atrofi o'rtasidagi aloqadorlik masalalari haqida V.V.Trushkov shuni qayd qilgan: «Shahar atrofi nisbatan mustaqillikka ega. U aglomeratsiya markaziga ta'sir qilishi mumkin. Ushbu ta'sir quyidagichadir: yirik shaharni ishchi kuchi bilan ta'minlaydi, shahar aholisi o'sishining manbalaridan biri bo'lib xizmat qiladi, shahar turmush tarzidan foydalanadi (avvalo ma'naviyat va ma'rifat sohasida) va boshqalar.

- Shahar atrofi zonasini belgilash uchun funksional yondashuv eng samarali usuldir. Shu yo'l bilan mezonlar kabi quyidagilarni ilgari surish mumkin;

- Shahar atrof xo'jaligi birinchidan, aglomeratsiya markazida rivojlangan ishlab chiqarish bilan funksional jihatdan bog'langan (assosiy korxonalarining sexlari, transport parki, omborxonalar, portlar va boshqalar);

- Shahar atrofi zonasiga huquqiy maqomga ega unga xizmat ko'rsatuvchi tarmoqlarning mavjudligi asosiy sharoitlardan biri. Bu qurilish materiallari sanoat korxonasi bo'lishi mumkin. Bunday vazifalarni agrar majmualari ham bajaradi;

- almashinuvi xosdir [6].

Shahar atrofi markaziy shahar bilan funksional jihatdan ishlab chiqarish, ijtimoiy-demografik, madaniy, ekologik, rekreatsiya, kommunikatsiya va boshqa turdag'i aloqalar bilan uzviy bog'langan, oxirgi yillarda, ayniqsa, turizmni rivojlantirish alohida e'tibor berilib, bu xudduda, dam olish va sport bazalari joylashgan.

Shahar atrofi zonalari funksiyalari shakllanishi bo'yicha ishlab chiqarilgan dastlabki tavsiyalarda juda ko'p o'zgarishlar kiritildi. Oxirgi paytda, shahar atrofi zonalarining rekreatsiya va sanitar-gigienik funksiyasi roli oshganlini e'tirof etish mumkin.

Shahar atrofi xududlarining ko'pfunksiyalligi shahar aholisi oziq-ovqat iste'mol mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojini ta'minlashda, qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan tovar mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashishida namoyon bo'ladi. Shuningdek, shahar atrofida yo'ldosh-shaharlar, alohida sanoat korxonalar, aeroportlar, temir yo'l vokzali, portlar, shuningdek, yirik shaharga xizmat ko'rsatuvchi suv ta'minoti qurilmalari, tozalash inshootlari, savdo bazalari va boshqa ob'ektlar joylashdi.

Shahar aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan uzlusiz ravishda ta'minlash muhim ahamiyatga ega. Shuningdek, shahar va uning atrof hududining iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanishi, shaharni o'zining atrofida joylashgan yo'ldosh shaharlar va shaharchalarga bo'lgan ta'siri va katta

shaharlar bilan ular atrofidagi xo‘jalik o‘rtasidagi aloqadorlik nazariy masalalarini chuqur talqin qilgan.

Shahar atrofi qishloq xo‘jaligi agrar sohaning muhim tarkibi bo‘lib, aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashda va agrar siyosatni amalga oshirishda ahamiyatli o‘ringa ega. Aholini oziq-ovqat mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini ta’minlash maqsadida, shahar atrofi xududining eng salmoqli yer maydonlarining qismi, qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ya’ni sabzovot, meva, sut va go‘sht mahsulotlari yetkazish uchun ajratilgan. Shahar atrofi zonasida agro-sanoat majmualari, klaster xo‘jaliklari, parnik, issiqxonalar, tajriba stansiyalari va boshqalar joylashgan. Yirik shahar aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash shahar atrofi qishloq xo‘jaligini asosiy vazifasi hisoblanadi, biroq, mahsulot yetishtirishdan tortib tayyor mahsulot ishlab chiqarishgacha bo‘lgan jarayonlarda samarali tashkil etishda ko‘pgina sohalarning birgalikdagi o‘zaro aloqadorligini ta’milanishi talab etiladi.

Shahar atrofi qishloq xo‘jaligining xududiy joylashishiga, rivojlanishiga va ixtisoslashishiga tabiiy va ijtimoiy-iqtisodiy omillar bog‘liq. Tabiiy omillarga tuproq, iqlim, relef va o‘simplik qoplami tashkil qilsa, ijtimoiy-iqtisodiy omillarga aholi, shahar aglomeratsiyalari, sanoat tarkibi, infratuzilma va xokazolar ijtimoiy -iqtisodiy omillarni tashkil etadi.

Qishloq xo‘jaligini xududiy tarkibi va uning ixtisoslashuviga qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetishishiga va hosildorligiga uchun zarur bo‘lgan vegetatsiya davrini belgilovchi agroiqlim resurslari, issiqlik, namlik, harorat belgilovchi omil bo‘lib xizmat qiladi. Binobarin, “yirik shaharlarning qishloq xo‘jaligiga ta’siri tabiiy sharoitning ta’siri bilan taqqoslanadi” [7].

Shuni qayd etish lozimki, shaharlar agrar sohaga ta’sir ko‘rsatadi. Shahar aholisini oziq-ovqat mahsulotlari bilan ta’minlash ehtiyoji, aglomeratsiya yadrosi va uning atrof xududlarini yaxlit xudududiy majmua sifatida boshqariladi. Shuningdek, shahar atrofi xo‘jaligining ixtisoslashuvi aholining talab va ehtiyoji asosida o‘zgarib turadi. Shahar aglomeratsiyalarida aholi yirik konsentratsiyasi mahalliy oziq-ovqat bazasini samaradorligini oshirish zaruriyatini oshiradi, bu maqsadga erishish o‘z navbatdida, shahar atrofi zonasida qishloq xo‘jaligini rivojlanishining yuqori intensiv shakllari va uslublari bo‘lgan sug‘oriladigan dehqonchilik, parnik-issiqxona xo‘jaligi, mexanizatsiyalashgan yem-xashak tayyorlash majmualari, broyler parrandachilagini va xokazolarni rivojlantirishni taqoza etadi.

Har qanday shahar shahar atrofi va uzoqroq xududlar bilan aloqadorlikda rivojlanadi. Shu jihatdan, shahar aholi punktlarining iqtisodiy-geografik o‘rnidan kelib chiqqan xolda tipologiyasini ishlab chiqish murakkabdir. Yirik shahar aholisining soni, atrof xududlariga ta’siri radiusini belgilaydi, masalan, shahar atrofi xududining o‘rtacha kengligi 1 million aholisi bo‘lgan, shaharlar uchun qabul qilinishi mumkin:- 35-50 km, 500 mingdan -1 mln kishi yashaydigan shaharlarga- 25- 30 km, 500 mingdan kamroqqa – 20-25 km.

Shaharning yuqori sur'atlarda rivojlanishi, aholi soning o'sishi, aglomeratsiya jarayonining kuchayishi shahar atrofi zonasini xududini kengayishi taqoza etadi. Shu bois, shahar atrofi xudud chegarasi o'zgaruvchanlik xos, ob'ektiv ehtiyojligini e'tiborga olgan holda, aholi punktlarini xududiy rejallashtirishda bu ob'ektiv ehtiyojni nazarga olish maqsadga muvofiq [8].

O'zbekistonda ana shunday qishloq xo'jaligi rayoni Toshkent shahri atrofida mavjud. "Ma'muriy jihatdan Toshkent iqtisodiy rayoni poytaxti-Toshkent shahri va Toshkent viloyatini o'z ichiga oladi. Ushbu mintaqqa mamlakat aholisining qismini 1/6 va uning yalpi ichki mahsulotining 1/4 qismini tashkil etadi. Yetakchi omillar va zarur shart-sharoitlar xom-ashyo, energetika, va iste'molchilar mavjudligi sababli Toshkent viloyati rivojlanishida muhim ta'sir ko'rsatadi." [9]. Unda Toshkent viloyati yoki boshqa viloyatlardan farqli o'laroq paxtachilik yoki donchilik rivojlanmagan. Rayonda yuqori intensiv va katta tovar ahamiyatiga ega tarmoqlar sabzovotchilik (sabzi, ko'katlar, qulupnay, pomidor, bodring, qizil lavlagi, sholg'om, turp va boshqalar), kartoshka yetishtirish, bog'dorchilik va uzumchilik keng tarqalgan sabzavotlarning ba'zi bir turlari, limon hamda turli xil gullarni yetishtirishga imkon beruvchi issiqxonalar va parnik xo'jaligi keng tarqalgan.

O'zbekistonning bozor iqtisodiyoti munosabatlariga o'tishi va o'z navbatda, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlar urbanizatsiya va shaharlarning rivojlanishiga ta'sir ko'rsatdi. Mustaqillik yillari davridagi eng muhim xususiyatlardan biri poytaxt aholisining yuqori sur'atlarda o'sishi va "shahar-qishloq" yo'nalihsida migratsiyaning kuchayishi bilan izohlanadi.

Shu nuqtai nazarda, poytaxt shahri aholisini oziq-ovqat va qishloq xo'jaligi mahsulotlari bilan ta'minlashda Toshkent shahar atrofi xo'jaligini ilmiy-tadqiq etish nazariy va amaliy ahamiyatga ega.

Shahar atrofi qishloq xo'jaligi mamlakat agrar sohasining tarkibiy qismi bo'lib, agrar ishlab chiqarishni barqaror rivojlanishi va raqobat muhitini yaratish maqsadida olib borilayotgan islohotlar muhim ahamiyat kasb etadi.

O'zbekiston davlat mustaqilligiga erishilgan kunlaridan boshlab, iqtisodiyotning tarkibiy qismi bo'lgan, agrar sohani islohatlashtirish, bozor iqtisodiy munosabatlarini shakllantirish va institutsional o'zgarishlarning amalga oshirishda davlat siyosatining ustivor yo'nalihslarida namoyon bo'lmoqda. Mamlakat oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishini rivojlantirish, agrar ishlab chiqarish tarmoqlarining samaradorligini oshirish, qishloq aholisi daromadlarini va turmush sifatini yaxshilash, olib borilayotgan siyosatda o'z ifodasini topmoqda. Mintaqalar o'rtasidagi ijtimoiy-iqtisodiy nomutonosiblikni bartaraf etishda, xududlarni barqoror rivojlantirish ta'minlashda, qishloq joylarini farovonligini oshirishda davlatning tarkibiy qismi bo'lgan agrar siyosatning roli va ahamiyati muhimdir.

“O‘zbekistonda qishloq xo‘jaligida aralash mulkchilikka asoslangan bozor munosabatlari shakllanmoqda. Bu esa o‘z navbatida qishloq joylarda turli mulkchilik shakllariga asoslangan qishloq xo‘jaligi korxonalarini barpo qilishga olib kelmoqda [10].

Davlat tomonidan olib borilayotgan agrar siyosatning asosiy yo‘nalishlari va tamoyillari shahar atrofi qishloq xo‘jaligini barqaror rivojlanishini ta’minalash, tabiiy va ijtimoiy- iqtisodiy sharoitlarni e’tiborga olgan holda hududiy-tarmoq tarkibini takomillashtirish, shahar aholisini sifatli qishloq xo‘jaligi mahsulotlar bilan ta’minalash maqsadida agrar ishlab chiqarish samaradorligini oshirish, ijtimoiy muommolarni va boshqalarni hal etishga qaratilgan.

XULOSA

1. Jamiyat tarixiy bosqichlariga xos turli ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlari shahar atrofi xududlarining shakllanishiga, rivojlanish xususiyatlariga, bajaradigan funksiyasiga, ixtisoslashuviga, band aholining faoliyat turlariga va boshqa jihatlariga o‘z aksini ko‘rsatadi.

2. Shahar atrofi qishloq xo‘jaligini iqtisodiy geografik jihatdan tadqiq qilish va ilmiy-nazariy jihatlarini oolib berish bir tomonidan, qishloq xo‘jaligi geografiyasi, ikkinchi tomonidan shaharlar geografiyasi yo‘nalishlari doirasida olib boriladi.

3. Yirik shahar va atrof xududlar ajralmas birlik sifatida namoyon bo‘lib, ular o‘rtasida iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va maishiy aloqalar kuzatiladi. Shu bilan birga, markaz va atrof muhit o‘rtasida mehnatni taqsimlashi, aholining ijtimoiy faolligini oshirish bo‘yicha yangi imkoniyatlar oolib beriladi.

4. Shahar atrofi xududlarining ko‘pfunksiyalligi shahar aholisi oziq-ovqat iste’mol mahsulotlariga bo‘lgan ehtiyojini ta’minalashda, qo‘srimcha qiymatga ega bo‘lgan tovar mahsulotlarini yetishtirishga ixtisoslashishida namoyon bo‘ladi. Shuningdek, shahar atrofida yo‘ldosh-shaharlar, alohida sanoat korxonalari, aeroportlar, temir yo‘l vokzali, portlar, shuningdek, yirik shaharga xizmat ko‘rsatuvchi suv ta’minoti kurilmalari, tozalash inshootlari, savdo bazalari va boshqa ob’ektlar joylashdi.

5. Hozirgi davrda, shahar atrofi hududida joylashgan xo‘jaliklarning rivojlanishi, ixtisoslashuvining o‘zgarishiga bo‘lgan qiziqish yana ham kuchaydi. Buning asosiy sababilaridan biri dunyoda davlat umumxalq mulkiga asoslangan rejali iqtisodiyotdan taraqqiyotning bozor modelini tanlab olgan mamlakatlar guruhining vujudga kelishi, o‘z navbatda, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy jarayonlar urbanizatsiya va shahar aglomeratsiyalari, shahar atrofi zonalarining rivojlanishiga ta’sir ko‘rsatishi, aynan agroiqtisodiy geografik tadqiqotlar olib borishni talab qiladi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Лаппо Г. География городов. М., 1997, 90-6.

2. Э.Б.Алаев Социально-экономическая география; Понятийно-терминологический словарь; М.: Мысль.; стр. 398.
3. Ўзбекистон Республикаси ер кодекси, 60- модда.
4. Баранский Н.Н. Об экономико – географическом изучении города. В.кн. Экономическая география. Экономическая картография М.1956 й.
5. Гладкий О. Міські системи розселення: становлення і структура // Вісник КНУ ім. Т. Шевченко, 2014. № 1 (62). С. 16–22.
6. В.В. Трушков Население города и пригорода.
7. Т.Г. Нефедова. За чертой больших и средних городов. Разноликая Россия//География, № 6, 8/2007.
8. Васильев И.В. Вопросы экономики и планирования пригородного хозяйства. М.: 1948.- с.41.
9. Mamatkodir I. Nazarov*, Bekzod B. Rakhmanov, Sergey L. Yanchuk, Shuxrat B. Kurbanov, Saida K. Tashtayeva, Zulhumor T. Abdalova NATURAL RESOURCE POTENTIAL OF INDUSTRIAL DEVELOPMENT OF THE TASHKENT ECONOMIC DISTRICT.: Available online at ESsinse Press Journals.: International Journal of Agricultural Extension.: ISSN: 2311-6110 (Online), 2311-8547 (Print)
10. MANNONOV, A. (2022). SARUKAIS. Sharqshunoslik. Востоковедение. Oriental Studies, (01), 1-2.
11. Ўзбекистон Республикасининг Конституцияси. Т: Ўзбекистон 2001-.15бет